

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021/Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IXTIYOROV A‘ZAMJON AVAZJON O‘G‘LI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA SUBYEKTIV MUNOSABAT SEMANTIKASI
VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 –– Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**

Ixtiyorov A'zamjon Avazjon o'g'li

Turli tizimli tillarda subyektiv munosabat semantikasi va uning lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida).....5

Ixtiyorov A'zamjon Avazjon o'g'li

Semantics of subjective attitudes in non-related languages and its linguocultural features(on the examples of English and Uzbek languages).....26

Ихтиёрлов Аъзамжон Авазжон угли

Семантика субъективных отношений в языках разных систем и ее лингвокультурологические особенности(на материале английского и узбекского языков).....48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

A list of published works

Список опубликованных работ.....52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021/Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IXTIYOROV A‘ZAMJON AVAZJON O‘G‘LI

**TURLI TIZIMLI TILLARDA SUBYEKTIV MUNOSABAT SEMANTIKASI
VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

(ingliz va o‘zbek tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil1631raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.kspi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bazarov Oybek Odilovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Vositov Valijon Abdurahobovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 raqamli Ilmiy kengashning “_____” _____ 2024-yil soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel: (99869) 228-85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz). Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin(____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel: (99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____ kuni tarqatildi. (2024-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

A.I.Ziyayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

N.A.Mamadjonova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Q.A.Siddiqov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari nomzodi,dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Jahon tilshunosligida subyektiv munosabat semantikasining ontologik tabiati, xususan, mazkur semantikaning turli lisoniy sathlarda mavjudligi va ularning paradigmatic, sintagmatic, iyerarx munosabatlardagi holatlari kabi masalalarga muayyan darajada e'tibor berilgan. Xususan, bugungi kunda subyektiv munosabat semantikasining turli tizimli tillar materialida tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish, tildagi qadriyatlarni anglatuvchi lisoniy birliklar tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, albatta, turli tizimli tillardagi subyektiv munosabat semantikasining tadqiqi zaruriyatini belgilab beradi. Shunday ekan, subyektiv munosabat tushunchasi va u bilan bog'liq lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarning chog'ishtirma tadqiqi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo tilshunosligida tilni antroposentrik, aksiologik, kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tadqiq etish ustuvorlik kasb etmoqda. Subyektiv munosabat semantikasi tadqiqida xususiylikdan umumiylikka borish, shu asosda universaliya va unikaliyalarni aniqlash, subyektiv munosabat semantikasi bo'yicha har bir tilning o'ziga xosligi, lingvomadaniy xususiyatlarini belgilash muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbek tilshunosligida subyektiv munosabat semantikasi hodisasi va uning lisoniy xususiyatlarini qarindosh bo'lmagan tillar materiallari asosida tadqiq etish, mazkur semantik hodisa qonuniyatlarini atroflicha va chuqur bilish muhimdir. Subyektiv munosabat semantikaning tilning turli sathlarida voqelanishi, mazkur semantikaning modallik, baholash, emotsionallik kabi unga yondosh hodisalarga munosabati, frazeologik birlik, o'xshatish va metaforalar orqali subyektiv munosabat semantikasining ifodalanishi kabi masalalar dolzarblik kasb etmoqda.

Ushbu dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida¹, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини Президентининг "Ўзбекистон Республикасини yanada rivojlantirish бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 18 февраль № 28 (6722).

huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Subyektiv munosabat va uning semantikasi bilan bog'liq ayrim masalalar jahon va rus tilshunoslari jumladan: G. Lakoff, V.Fon Gumboldt, A.A.Potebnya, J.L.Lemke, rus tilshunoslaridan S.F.Anisimov, V.V.Vinogradov, V.I.Dodonov, Ye.M.Volf, N.D.Arutyunova, Ye.S.Yakovleva, M.S.Kagan, V.A.Maslova, O.N.Kushnir, A.A.Artemov, L.V.Kolijuk, O.V.Moshtak, L.N. Fedoseeva, A.M.Peshkovskiy, Ye.A.Andreeva va boshqa olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan². Nutqda baholash jarayonini o'rganish fonostilistika, fonosemantika, fonopragmatika kabi tilshunoslikning yangi sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Dunyo va rus tilshunosligida A.X.Kurat, M.Magnus, A.R.Juravlev, I.Ye. Galoshkina, N.V. Cheremisina, S.V. Voronin, D.L.Lensa., Ye. Soloveva³; o'zbek tilshunosligida Z.Kabilova, O.Tursunova, F.Xalimova, M.Goziyeva, A.Haydarov, M.Norova singari olimlar xizmati bilan yuqoridagi yo'nalishlar jadal rivojlanib bormoqda⁴. Muloqotda ijobiy

²Lakoff G. *Woman, Fire and Dangerous Things: What categories Reveal about the mind.* – Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1987. – 614 p.; Гумбольдт В.Ф. *Язык и философия культуры.* – Москва: Прогресс, 1985. – 452 с.; Потебня А.А. *Из записок по русской грамматике.* Москва: госпедиздаг, 1958. – 343 с.; Lemke J.L. // *Semantics and social values, Word.* – New York: Bruoklin College School of Education, 1989. – P. 234-238.; Ивин А.А. *Основания логики оценок.* – Москва: Изд-во МГУ, 1970. – 230 с.; Anisimov S.F. *The real and imaginary values* – Moscow: Thought, 1970 – 183 p.; Виноградов В.В. *Русский язык: Грамматическое учение о слове.* – Москва: Просвещение, 1972. – 614 с.; Додонов В.И. *Эмоция как ценность.* – Москва: Политиздат, 1978. – 272 с.; Вольф Е.М. *Функциональная семантика оценки.* – Москва: Наука, 1985. – 226 с.; Арутюнова Н.Д. *Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт.* – Москва: Наука, 1988. – 340 с.; Яковлева Е.С. *Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия)* – Москва: Гнозис, 1994. – 344 с.; Каган М.С. *Философская теория ценности.* – Петрополис: СПб, 1999. – 205 с.; Маслова В.А. *Когнитивная лингвистика.* – Минск: Тетра Системс, 2004. – 266 с.; Kushnir O. N. *Axiological base of the typology of linguistic cultural concepts. Category of values and culture (axiology, literature, language) // Proceedings of scientific conference.* – Vladikavkaz: Publishing House of the North Ossetian State University, 2010. – P. 165-174.; Artemov A. A. *Philosophical experience in building value hierarchy // Problems of modern economy.* – Moscow. 2006. – P. 51-53.; Колижук Л. В. *Концепты «GOOD» и «EVIL» в британской лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.* – Владикавказ, 2010. – 22 с.; *Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография.* – Москва: Тезаурус, 2011. – 352 с.; Моштак О.В. *Linguistic aspect of evaluative category of pejorativeness // Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету.* – Сер: Філологія. 2015. – С. 37-39.; Федосеева Л. Н. // *Ценности и оценки в системе аксиологии русской лингвокультуры (на примере про-странственного фрагмента картины мира) // Культура и цивилизация.* – Рязань: Аналитика родис., 2017. – С. 134-141.; Пешковский А. М. *Лингвистика. Поэтика. Стилистика* – Москва: Флинта, 2018. – 712 с.; Andreyeva E., Nazmieva E., Nasrtdinova V. *Taxonomy of Values and Anti-Values: the Material of the Russian and German Phraseology // Journal of History Culture and Art Research* 6 (5) – Karabuk University, 2017. – P. 301-309.

³Kurath H.A. *Phonology and Prosody of Modern English.* – Ann Arbor: The University of Michigan Press, 1963. – 237 p.; Magnus M. *What's in a Word? Studies in Phonosemantics.* PhD dissertation, Norwegian University of Science and Technology, 2020. – 413 p.; Журавлев А.П. *Звук и смысл.* – Москва: Просвещение, 1991. – 160 с.; Галожкина И.Е. *Роль интонации в формировании прагматических типов высказываний (на материале англ. языка): дисс. ... канд. филол. наук.* – Москва: МГПИИЯ, 1981.–167 с.; Черемисина Н.В. *Русская интонация: поэзия, проза, разговорный речь.* – Москва: Наука, 1982.–316 с.; Воронин С.В. *Основы фоносемантики.* – Л., 2009. – 248 с.; Ленца Д.Л., Соловьева Е.В. *Фонетика в аспекте прагматики* – Кишинев, 1989.– 98 с.

⁴Кабиллова З.М. *Ўзбек тилининг фоносемантик воситалари: Филол. фан. ном. ... дисс.* – Андижон, 2008. –124 б; Турсунова О. *Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. ном. ... дис.* 2019. – 129 б.; Газиева М.М. *Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф.* – Тошкент, 2018. – 65 б.; Ҳайдаров А.А. *Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. ном. ... дисс.* – Тошкент, 2008. – 158 б.; Норова М. Ф. *Инглиз ва ўзбек тилларида*

yoki salbiy baho munosabatini yoritishda K.T.Simmer, L.Bauer, M.Ya.Blox, J.Bo‘ronov, R.Qo‘ng‘urov, Sh.Safarov, Sh.Iskandarova, M.Mamadaliyeva Z.Tohirov, A.Abdullayev, B.Umurqulov, E.Qilichev, S.Boymirzaeva kabilar tadqiqot ishlari olib borganlar⁵. Subyektiv munosabat semantikasini modallik va aksiologik bahoga munosabati masalalari J. Yoqubov, G‘.Qambarov, M.Jo‘rayeva, G. Komilova, E. Ibragimova, Z. Isaqova, D. Boymatova kabi tadqiqotchilar tomonidan ma‘lum darajada tadqiq etilgan⁶. Ammo, bu tadqiqotlarda subyektiv munosabat semantikasining tilning turli sathlarida ifodalanishi hamda uning turli xalqlar tillarida lingvokulturologik hodisa sifatida voqelanishi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tanlangan tadqiqot mavzusi Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Dunyo tillari lisoniy birliklarining lingvokulturologik va lingvoetnik masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasining lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

subyektiv munosabat kategoriyasining lisoniy tabiatiga bo‘lgan turli qarashlarning yutuq-kamchiliklarini ko‘rsatish, mavjud ilmiy tushuncha va atamalarga aniqlik kiritish, tartibga solish va to‘ldirish;

subyektiv munosabat semantikasi kategoriyasining umumlisoniy tabiatini ochib berish hamda uni yondosh hodisalardan farqlash;

фоностилистик ва графостилистик воситаларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 50 б.; Халимова Ф.Р. Поэтик матннинг лингвофонетик хусусиятлари ва таржиманинг прагматик муаммолари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.

⁵ Zimmer, K. E. Affixal Negation in English and Other Languages. – New York: 1964. – 105 p.; Bauer Laurie. English word formation – Cambridge University Press, 1983. – 311 p.; Блох М.Я. Теоретическая грамматика английского языка. – Москва: Высш. школа, 1983. – 383 с.; Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 273 б.; Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 168 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – 318 б.; Искадарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида тадқиқ этиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 61 б.; Тоҳиров З. Матн прагматикаси. – Самарқанд: Университет, 2015. – 123 б.; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 104 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив–прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 2011. – 320 б.

⁶ЯкубовЖ. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Филол. Фанлари д-ри...дис. – Тошкент, 2006. – 308 б. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (Шахслараро муносабат асосида). Филол.фанлари номзоди. ...дис. – Тошкент, 2008. – 125 б.; Жўраева М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанларид-ри...дис.автореф. – Тошкент, 2017. – 76 б.; Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол.фанлари фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.; Ибрагимова Е. Ўзбек тили лексикасининг аксиологик тадқиқи. Ўқув- услубий қўлланма. – Фарғона, 2018. – 84 б. Исақова З. Инглиз ва ўзбек тилларида баҳо муносабатининг ифодаланиши Филол. Фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD... дис.. Наманган, 2022 174 б.; Бойматова Д. Мураккаблашган содда гапларда аксиологик модалликнинг семантик-прагматик тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа д-ри (PhD)... дисс– Жиззах, 2022. – 140 б.

tildagi subyektiv semantika tushunchalariga oydinlik kiritish hamda subyektiv munosabat semantikasining ijobiy, neytral va salbiy turlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

subyektiv munosabat semantikasining fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik sathlarda ifodalanishiga xizmat qiluvchi leksik birliklar va ularning munosabatlarini aniqlash;

subyektiv munosabat semantikasining lingvokulturologik birliklarga xos bo'lgan belgilarini aniqlash va ularning ingliz va o'zbek tillarida o'ziga xosliklarini dalillash.

Tadqiqotning obyektini ingliz va o'zbek tillaridagi subyektiv munosabat semantikasini voqelantiruvchi til sath birliklari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi subyektiv munosabat semantikasini ifodalovchi lisoniy birliklarning semantik, struktur, va lingvomadaniy aspektlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish maqsadida ishda tavsifiy, chog'ishtirma, komponent, transformatsiya, oppozitsiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

subyektiv munosabat semantikasi modallik, subyektiv modallik va uning turlari, aksiologik baho va aksiologik modallik, lingvistik baho, subyektiv baho va uning til sathlarida voqelanishi kabi kategoriyalar doirasida yuzaga chiqqanligi bois uning nafaqat falsafiy va mantiqiy, balki psixologik va lingvistik kategoriya ham ekanligi asoslangan;

subyektiv munosabat semantikasi bir tomondan, obyektivlik, subyektivlik, umumiylik, xususiylik, sifat, miqdor, me'yor kabi falsafiy kategoriyalar bilan, boshqa tomondan esa, subyektiv-pragmatik kategoriyalar bo'lmish modallik, emotsionallik, baholash, intensivlik, ekspressivlik kabilar bilan bog'liqligi va u tilda ijobiy, salbiy yoki neytral baho tarzida voqelananishi asoslangan;

supersegment birlik bo'lgan intonatsiya va uning komponentlari bo'lmish urg'uni turlicha qo'llanishi yani unli yoki undoshni cho'zib talaffuz etish, mantiqiy urg'u hamda ovoz tonini ko'tarish yoki pastlatish natijasida, shuningdek, har bir so'z turkumi doirasida prefiks va suffiksalar yordamida turli-tuman ijobiy, neytral yoki salbiy munosabat ifodalanishi dalillangan;

lug'aviy sath birliklari bo'lgan leksema va frazemalarning ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalash holatlari hamda so'z birikmasi va gaplarning subyektiv munosabat semantikasini ifodalash xususiyatlari, o'xshatish kategoriyalari va metaforalardan foydalanish orqali subyektiv munosabat semantikasining shakllantirilishi, ularning urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi kabi milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

baho va munosabat so'zlari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilshunoslikda "baho munosabati", "subyektiv munosabat", "ijobiy munosabat", "salbiy munosabat" kabi terminlar tilshunoslar tomonidan keng qo'llanilyotganligi asoslangan;

baho munosabati termini orqali voqelikka nisbatan subyektiv munosabat bildirish mazmuni tushunilishi va baho munosabati nutqda til sath birliklari orqali yuzaga chiqishi, baho munosabati ifodalanishida til sath vositalarining ijobiy va salbiy ma'no anglatishi asosiy o'ringa chiqishi ko'rsatib berilgan;

subyektiv munosabat semantikasining tilning turli sathlarida voqelanishi, frazeologik birliklar, metafora va o'xshatishlar mazkur semantikani voqelantiruvchi vosita ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, xulosa va natijalarda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, chiqarilgan ilmiy xulosalarning tavsifiy, struktur, chog'ishtirma usul, statistik tahlillar bilan asoslangani, emotsional so'zlarni tahlil qilishda aniq amaliy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chog'ishtirilayotgan tillardan olingan tahlillar, ya'ni ikki til vakillarining etnik, mental va madaniy xususiyatlariga oid ilmiy xulosalar va keltirilgan fikr-mulohazalar kognitologiya, lingvokulturologiya, semantika, tarjimashunoslik, pragmalingvistika, fonostilistika, fonosemantika, matn lingvistikasi, sotsiolingvistika sohalariga oid tadqiqot muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy xulosalardan "Chog'ishtirma tilshunoslik", "Matn lingvistikasi", "Lingvokulturologiya", "Stilistika" kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, ko'rsatilgan fanlar bo'yicha ma'ruza, seminar mashg'ulotlarini ishlab chiqish va olib borish, darslik, o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda amaliy manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimli tillarda subyektiv munosabat semantikasi va uning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

subyektiv munosabat semantikasi modallik, subyektiv modallik va uning turlari, aksiologik baho va aksiologik modallik, lingvistik baho, subyektiv baho va uning til sathlarida voqelanishi kabi kategoriyalar doirasida yuzaga chiqqanligi bois uning nafaqat falsafiy va mantiqiy, balki psixologik va lingvistik kategoriya ham ekanligi, supersegment birlik bo'lgan intonatsiya va uning komponentlari bo'lmish urg'uni turlicha qo'llanishi yani unli yoki undoshni cho'zib talaffuz etish, mantiqiy urg'u hamda ovoz tonini ko'tarish yoki pastlatish natijasida, shuningdek, har bir so'z turkumi doirasida prefiks va suffikslar yordamida turli-tuman ijobiy, neytral yoki salbiy munosabat ifodalanishi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ta'risligida tashkil etilgan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023 yillarda bajarilgan F3-201912258. "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 31-maydagi 04/1-1411-son ma'lumotnomasi). Natijada keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan sub'ektiv munosabat semantikasining o'quvchilarining dunyoqarashini takomillashtirish, ularning

ijodiy interfaolligini ta'minlash, media tadbirlarni tashkil etish, illyustratsion taqdimot o'tkazish, mashg'ulotlarda instrumental-motivatsion, produktiv-faoliyatli kompleks yondashuvlardan foydalanishga hamda intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirishni olib borish borasida tavsiyalar loyiha lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari samaradorligini oshirishga, mavjud dasturlar va qo'llanmalarning takomillashuviga xizmat qilgan;

supersegment birlik bo'lgan intonatsiya va uning komponentlari bo'lmish urg'uni turlicha qo'llanishi yani unli yoki undoshni cho'zib talaffuz etish, mantiqiy urg'u hamda ovoz tonini ko'tarish yoki pastlatish natijasida, shuningdek, har bir so'z turkumi doirasida prefiks va suffikslar yordamida turli-tuman ijobiy, neytral yoki salbiy munosabat ifodalanishiga doir natijalardan Namangan davlat universitetida 2020-2023 yillarda bajarilgan FZ-20190815110 "Kodeks Kumanikus" qo'lyozmasining elektron ilmiy izohli matni va izohli lug'atini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Namangan davlat universitetining 2024 yil 3-iyundagi 661-04 son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha ishi doirasida qo'lyozmalarning elektron ilmiy izohli matni va izohli lug'ati dissertatsion tadqiqot jarayonidan olingan ilmiy ma'lumotlar boyitgan;

lug'aviy sath birliklari bo'lgan leksema va frazemalarning ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalash holatlari hamda so'z birikmasi va gaplarning subyektiv munosabat semantikasini ifodalash xususiyatlari, o'xshatish kategoriyalari va metaforalardan foydalanish orqali subyektiv munosabat semantikasining shakllantirilishi, ularning urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi kabi milliy-madaniy xususiyatlari haqida olingan xulosalaridan Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining 2023- yil efirga uzatilgan "Ma'naviyat sarchashmasi", "Adabiy muhit", "Qadriyat" ko'rsatuvlarida, shuningdek, "Ma'naviyat – qalb ko'zgusi" radioeshittirishlari stsenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-dekabrda 02-12/242-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmun-mohiyati mukammallashgan, ilmiy dalillar bilan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (3 ta respublika hamda 5 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, 3 bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 148 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Subyektivlik kategoriyasining falsafiy va lingvistik asoslari” deb nomlanib, uning dastlabki faslida “Obyektivlik va subyektivlik kategoriyalarining falsafiy asoslari” mavzusi yoritilgan.

Ma‘lumki, har qanday xususiy fan falsafa, mantiq, yetakchi tabiiy fanlar metodologiyasi va metodlari asosida taraqqiy etadi. Bilish nazariyasi (gnoseologiya) shuni uqtiradiki, har qanday xususiy fan sohibi falsafa va mantiqning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorni inkor, uchinchi istisno, uchinchi mavjud (shart), aynanlik, yetarli asos kabi ontologik va gnoseologik qonunlarni puxta bilishi shart. Chunki bu qonunlar va ularning kategoriyalari har bir fan predmetida o‘ziga xos (o‘z xususiy voqeligiga uzviy bog‘liq ravishda) tarzda namoyon bo‘ladi⁷.

Obyektivlik va subyektivlik muammolari gnoseologik masalalar guruhiga taalluqli bo‘lib, ular avvalo falsafa fanlari doirasida o‘z yechimini topadi. Ushbu muammo dunyoqarash asoslari bilan bog‘liq, nafaqat ongning mohiyati bilan, balki falsafaning asosiy masalalaridan bo‘lmish ong va turmush tarzi munosabatlari bilan bog‘liq va shu bois ham barcha konkret fanlar uchun, xususan, gumanitar fanlar va avvalombor tilshunoslik uchun katta ahamiyat va qiziqish uyg‘otadi. Tilshunoslik ong va borliq, voqelik munosabatlari masalasini chetlab o‘tolmaydi, chunki tilning har qanday izohi uning mazmun tomoni tavsifi, ya‘ni uning jamiyatdagi bilish-kommunikativ funksiyasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Subyektivlik va obyektivlikning o‘zaro uyg‘unlashuvini o‘rganish masalasida faylasuflar, ruhshunoslar va tilshunoslar xilma-xil nuqtai nazarda turadilar. Har bir fanda bu masalaga dahldor fikr va yondashuvlar o‘nlab maktab, yo‘nalishlarni yuzaga keltirgan. Nazariy tilshunoslik fanining asoschilaridan biri Vilgelm fon Gumboldt predmetlar idroki subyektiv xususiyatga ega ekanligi va bu subyektivlik til qurilishida aks etishini ta‘kidlab, so‘z predmetni aynan aksi emas, balki inson qalbida hosil bo‘lgan timsol (obraz)ning in‘ikosi sifatida qarash lozimligini uqtiradi. Har qanday obyektiv idrokka subyektivlik hamroh bo‘lishini inobatga olib, har qanday individual insonni, hatto lisonga e‘tibor bermagan holda ham, olam idrokida alohida nuqtai nazarga ega, deb hisoblash kerak⁸. Demak, shaxs obyektiv voqelikka subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalaydi va so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabati tilda lingvistik va ekstralingvistik vositalar yordamida aks etadi. Subyektivlik hamda obyektivlik tushunchalari nafaqat falsafa va mantiq fanlarining o‘rganish obykti balki,

⁷ Bozorov O. Tilshunoslikning falsafiy metodologiyasi. Monografiya. Toshkent. 2021. B. 4-6.

⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 200.

psihologiya, tilshunoslik kabi fanlarda ham mazkur kategoriyalar alohida e'tibor talab etadi.

Bobning ikkinchi faslida “*Subyektiv munosabat semantikasining nazariy asoslari*” masalasiga e'tibor qaratiladi. Baho va munosabat so'zlari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq va tilshunoslikda “baho munosabati”, “subyektiv munosabat”, “ijobiy munosabat”, “salbiy munosabat” terminlari tilshunoslar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shaxslararo munosabatlar baholash orqali yuzaga keladi, ya'ni muloqot ishtirokchilari o'zi va tinglovchiga bo'lgan shaxsiy bahosidan kelib chiqib, muloqot jarayonida fikr bildiradi. O'z navbatida baho, muloqotda kommunikantlar munosabatlari asosida shakllanadi va o'zaro fikr almashish jarayonida ochiq yoki yashirin tarzda aks etadi. Demak, “baho munosabati” termini orqali voqelikka nisbatan subyektiv munosabat bildirish mazmuni tushuniladi va baho munosabati nutqda til sath birliklari orqali yuzaga chiqadi. Baho munosabati ifodalanishida til sath vositalarining ijobiy va salbiy ma'no anglatishi asosiy o'ringa chiqadi. Munosabat turli lisoniy birliklarni birlashtirib, ma'lum bir tizimga soluvchi til vositasi hisoblanadi va tilda ijobiy yoki salbiy baho tarzida voqelanadi.

Tilshunoslikda baho nazariyasi muammosiga qiziqishning ortishi natijasida ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Rus tilshunoslari Ye.M.Volf, N.D.Arutyunova, A.A.Ivin kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida baholash va aksiologik modallikka doir qimmatli fikrlari mavjud⁹. Shuningdek, rus tilshunosligida L.P.Dronova, V.A.Maryanchik, A.A.Saltikova, O.M.Afanaseva, V.Yu.Kostyuchenko, A.A.Medova, S.V.Mosheva, A.S.Timishuk kabilarning ilmiy izlanishlari ham matnning turli ko'rinishlarida ifodalangan aksiologik modallikning tadqiqiga bag'ishlanadi¹⁰.

O'zbek tilshunosligida ham modallik, subyektiv modallik va uning turlari, aksiologik baho va aksiologik modallik masalalari ma'lum darajada tadqiq etilgan¹¹. Bu tadqiqotlarda matn va uning ko'rinishlari, nutq hamda uning turlaridagi modallik hodisasining funksional, kognitiv, semantik, pragmatik xususiyatlari yoritilgan.

Subyektiv munosabat har bir og'zaki nutq turlarida turlicha ifodalanadi va har xil ifoda vositalariga ega. G'.Qambarov esa baho munosabatiga bag'ishlangan tadqiqot ishida bahoni pragmatikaning markaziy va asosiy tushunchalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi hamda uning nazariy asoslanishi formal aksiologiyada o'z aksini topganligini qayd etib, sintaktik usul bilan baho ifodalanishida undalma, kirish so'z, kirish gap, modallik munosabati, inversiya va boshqa sintaktik uzvlar faol ishlatilishi mumkinligi haqida o'z fikrini bayon etadi. Olimning ilmiy

⁹ Назаров Қ. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий фалсафий муаммолари). Фалсафа фанлари д-ри дис. – Тошкент, 1996. – Б.157.Багаутдинова Г. Человек во фразеологии: антропоцентрические и аксиологические аспекты. Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук –Уфа, 2007. – С.27. 35.

¹⁰ Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – Изд. 2-е, доп. – М., 2002. – 280 с. ; Ивин А.А. Основания логики оценок. – Москва, 1970. – 230 с. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – Вып. 3. – Москва, 1985. – С. 13- 24;

¹¹ Саттарова Р.В. Средства моделирования властных отношений в политическом дискурсе (на материале дискурса Д.Кэмерона). Дис. .. канд. филол. наук.– Уфа, 2019. – С.25.

xulosasiga ko‘ra, o‘zbek tilida baho munosabati nominativ ma‘no ustiga qo‘yilgan aksiologik ma‘no orqali yuzaga chiqadi va u turli xil vositalar orqali ifodalanadi¹².

Ma‘lumki, aksiologik baho dastavval falsafa fanida obyekt sifatida o‘rganilgan. Keyinchalik bu jarayon tilshunoslik (lingvistika)ning tadqiq obyektlari sirasiga kiritildi¹³. E.Ibragimova “O‘zbek tili lingvistikasining aksiologik tadqiqi” nomli monografiyasida aksiologik bahoning ham falsafiy, ham lingvistik kategoriya sifatida namoyon bo‘lishi, bahoning estetik funksiyasi haqida o‘z fikrlarini bayon etgan. Olimaning fikricha, “baho ma‘nosi obyekt va subyekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, ya‘ni so‘zlovchi (subyekt) obyektдан ta‘sirlansa yoki unga o‘z munosabatini bildirish istagi tug‘ilsa, o‘z fikrini bayon qiladi. Natijada baho munosabati yuzaga chiqadi”¹⁴. Demak, zamonaviy tilshunoslikda fanlararo bog‘liqlikka asoslangan lisoniy aksiologik tadqiqotlar tilshunoslik jihatdan yangi bo‘lsa-da, aksiologik baho falsafa, mantiq kabi fanlar tarkibida uzoq rivojlanish tarixiga ega va hozirgi kunda dunyo tilshunoslari tomonidan qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan tadqiqotlarning barchasi ham tildagi baho munosabatini yoritib berishda o‘ziga xos o‘ringa ega va ma‘no-mazmun jihatidan bir-birini to‘ldiradi. Lekin subyektiv munosabat semantikasining turli tizimli tillardan hisoblangan ingliz va o‘zbek tillarida ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalashi, baholashning boshqa semantik hodisalar bilan munosabati masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

“*Subyektiv munosabat semantikasining yondosh hodisalarga munosabati*” nomi ostidagi faslda mazkur kategoriyaning modallik, baholash, emotsionallik, intensivlik kabi kategoriyalarga munosabati masalalari tahlilga tortiladi. S.E.Rodionovanning fikriga ko‘ra, mazkur kategoriya bir tomondan, obyektiv kategoriyalar: obyektivlik, subyektivlik, umumiylik, xususiylik, sifat, miqdor, me‘yor bilan, boshqa tomondan, esa subyektiv-pragmatik kategoriyalar: modallik, emotsionallik, baholash, ekspressivlik kabilar bilan bog‘liq¹⁵. Darhaqiqat, subyektivlik kategoriyasi o‘z mazmun mundarijasini sifat, miqdor, me‘yor kabi kategoriyalar mazmuni bilan aloqadorlikda tashkil etadi.

Tilshunoslikda modallik kategoriyasi gap semantikasining eng muhim belgisi sifatida o‘rganiladi. V. G. Gakning qayd etishicha, “tilshunoslikda modallik deganda, odatda, so‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya yoki so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan

¹² Якубов Ж. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Филол.фанлари д-ри...дис. – Тошкент, 2006. – Б.13. Қамбаров Ф. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (Шахслараро муносабат асосида). Филол.фанлари номзоди. ...дис. – Тошкент, 2008. – Б.47.

¹³Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив–прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фанлари д-ри... дис. – Тошкент, 2011. – Б.194. 87 Жўраева М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари д-ри...дис.автореф. – Тошкент, 2017. – Б.26.

¹⁴ Ибрагимова Е. Ўзбек тили лексикасининг аксиологик тадқиқи. Ўқув услубий қўлланма. – Фарғона, 2018. – 84 б.

¹⁵ Родионова С. Интенсивность.и его место в ряду других семантических категорий/ С.Е. Радионова// Славянский вестник. Вып. 2. – М.: МАКС - Press, 2004. – С. 303

munosabati tushuniladi”¹⁶. Ushbu obyektiv voqelikni so‘zlovchi baholash tarzida qabul qiladi va uni o‘z ongida aks ettirib, voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabatini har xil semantik kategoriyalar yordamida bayon qiladi.

Baho elementi tilning turli birliklari semantikasida muhim rol o‘ynaydi. Baho kategoriyasi – baho semantikasi bilan birlashgan turli sath birliklari bo‘lib, nutq mazmuniga muallifning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalaydi. Baho so‘zlovchi yoki nutq subyektining borliqdagi narsa va hodisalarga munosabatidir. Baholash harakati subyektning obyektga munosabati namunasidir va bu munosabat voqelanishida obyektning subyekt uchun ahamiyatli tomoniga e‘tibor qaratiladi, alohida urg‘u beradi. So‘zlar semantik belgilariga ko‘ra baholash jihatdan neytral hamda bevosita baho ifodalovchilarga bo‘linadi. Baho ifodalovchi so‘zlar doirasida, o‘z navbatida, ikki guruh, ya‘ni ijobiy va salbiy baho ifodalovchilar farqlanadi. Tilshunoslikda bu ko‘pincha (+ / -) tarzida belgilanadi. Leksik birlikning baholovchi komponenti deyilganida odatda shu tilda so‘zlashuvchi kishilarning ongida shakllangan lisoniy faktlarga subyektiv munosabati tushuniladi. Bunday munosabat yaxshi, yomon yoki neytral munosabat bo‘lishi mumkin.

Intensivlik va baholash kategoriyalari semantik jihatdan murakkab aloqadadir. Shunisi muhimki, har qanday belgining intensivlik baholash kvalifikatsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Bunda so‘z ma‘nolari bir vaqtning o‘zida intensivlik va emotsionallik semalarini qamrab oladi. Bu hol esa baholash komponentining yuqori darajada bo‘lishiga olib keladi. Qiyoslaymiz: ingliz tilida *terribly or awfully love/hate.2) tremendously beautiful/ugly.*


Intensifikatorlardagi sof salbiy baho belgisi ko‘p hollarda yo‘qoladi. Bunday vaziyatda intensivlik baholashga olib keluvchi vositalar emotsionallik va baholash ma‘nolarini aks ettiradi. “Baholash harakatining har qanday ko‘rinishi idrok va nutq subyektining faoliyati bilan bog‘liq holda tavsiflanadi”¹⁷. Zotan, intensivlik baholashning me‘yoriy o‘lchovi hisoblanadi.

Nutqda emotsionallikning ifodalanishini ko‘rib chiqilsa, emotsiya bilan birga baho munosabati ifodalanishi ko‘zga tashlanadi: –*Ho, bo‘yiz yetmagandan keyin puf sassiq bo‘ldimi!* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari 54 - bet) gapida ham emotsionallik, ham baho munosabati ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin. Shunisi e‘tiborga molikki, emotsionallik bu his-tuyg‘uga ega so‘zlar, til sath vositalari orqali namoyon bo‘luvchi hodisadir. Emotsionallik baho ifodalanishi semantik jihatdan o‘zaro farqlanadi. Emotsionallikni ifodalovchi nutq birliklarining barchasi ham baho munosabatini ifodalay olmaydi. Ba‘zi emotsional so‘zlar (masalan, ayrim undov so‘zlar: *allo, xo‘sh, kisht*) baho tushunchasiga ega emas. Masalan: – *Xo‘sh...–dedi dadam salmoqlab. – Ishni do‘ppidan boshlaymiz.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi. 68 -bet).

¹⁶ Гак В.Г Семантика структуры слова как компонент семантической структуры высказывания // Семантическая структура слова. Психологические исследования. – М.: Наука, 1971. - С. 78 - 96.

¹⁷ Абдуллаев А .Интенсивликни ифдаловчи аналитик формалар // Ўзбек тили ва адабиёти . – Тошкент, 1973. - № 1. - Б. 36-39.

Yuqorida keltirilgan subyektivlik, modallik, baholash, intensivlik, ekspressivlik, emotsionallik kabi kategoriyalar sharhidan shunday xulosa qilish mumkinki, bizning nazarimizda bular orasida subyektivlik kategoriyasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga modallik, baholash, emotsionallik, intensivlik kabilarni qamrab oladi. Chunki mazkur kategoriyalarning qo‘llanish doirasi turlicha bo‘lsa-da, ularning yagona maqsadi so‘zlovchining moddiy borliqdagi narsa-hodisalarga subyektiv munosabatini ifodalashdan iboratdir. Ta’kidlab o‘tganimizdek, subyektiv munosabat esa ijobiy, neytral yoki salbiy baho orqali voqelanadi. Mazkur kategoriyalar kesishishi ham mumkin yoxud nutqda alohida – alohida ham kelishi mumkin. Quyidagi jadvalda ularni kesishi ko‘rsatilgan.



Belgi obyektiv va subyektiv olamlarda sifat, miqdor jihatlardan turli - tuman bo‘lganligi uchun butun olamni o‘zida aks ettiruvchi til subyektiv munosabat semantikasi o‘zining turli sath birliklari hamda vositalari yordamida aks ettirishga harakat qiladi. Quyida har bir sath tahliliga qisqacha to‘xtalamiz.

Ishning ikkinchi bobi “*Ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasini ifodalovchi birliklarning chog‘ishtirma tadqiqi*” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi faslida ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasining fonetik sathda voqelanishi masalalariga e’tibor qaratiladi.

Fonetik sathda subyektiv munosabat ifodalashda intonatsiya alohida ahamiyatga ega. Gapning boshlanish va tugash chegaralari ana shu intonatsiyada ko‘rinadi. Garchi intonatsiya gap mazmunini jiddiy o‘zgartira olmasa ham, so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Nutq tarkibida baho munosabati segment vositalar orqali asosan quyidagi ko‘rinishlarda aks etadi: a) unli tovushlarni kuchli talaffuz qilish: *Kind Heaven! What a realization of paradise! What a consummation of luxury!* (Th.Dreiser. An American tragedy. P. 36); b) unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish: – *E-e, bor-e, xo‘p, o‘shaman, lekin seni unutganman, nima desang, deyaver, hozir ko‘zini yog‘ bosib, o‘zgargan nomardman.*; v) undosh tovushlarni qavatlash: “*Will you listen to this now?*” *exclaimed Hegglund, dramatically.* (Th.Dreiser. An American tragedy. P. 56).

Baho munosabatining unlilar orqali yuzaga chiqishi uchun tovushning cho‘ziq yoki qisqa aytilishi ahamiyatli sanaladi. Lekin bunda unlilarning cho‘ziq yoki qisqa talaffuz qilinishi farqlanuvchi yoki farqlanmovchilik xususiyatini ko‘rsatishini ham unutmazlik va buni unlilarni cho‘ziq yoki zarb bilan talaffuz qilish orqali baho xususiyatini namoyon qilishi bilan adashtirmaslik kerak. Masalan:

unlilarning uzun-qisqalik xususiyati o'zbek va rus tillari uchun farqlanmovchi, lekin ingliz, nemis, fransuz, qirg'iz, turkman tillari uchun esa farqlanuvchidir. Ingliz tilida *eat* [i:t] – *it* [it] so'zlaridagi cho'ziqlik ma'no farqlashga xizmat qiladi.

Undov so'zlar orqali baho munosabati yuzaga kelganida biz unlilarni cho'zish yoki undoshlarni qavatlash orqali baho munosabati yuzaga kelishini ko'p kuzatamiz. Masalan, jahlni bildirgan: *daamn! zoundsss!*, ma'qullash: *hurrah!*, achchiqlanish: *bother! ouch! Cut my bangs reaaaal short. Whoops!*, mensimalik: *baah! phooey!*, mamnuniyat: *goody! yippee!*, nafrat: *aargh! rot!*, zavqlanish: *wahoo! zowie!*, qo'rquv: *eeek!*, og'riq: *ooow! oouch!*, hayrat va ajablanish: *woow! dear meee!*.

Intonatsiya unsurlaridan biri bo'lgan pauza ham og'zaki va yozma nutqda muhim ro'l o'ynaydi. Qaysi so'zga diqqat tortiladigan bo'lsa, o'sha so'z pauza orqali ajratiladi. Temp, tembr, urg'u kabi intonatsiya komponentlari ham nutqni ekspressiv, ifodali qilishda hamda so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Agar so'zning oxiri baland ovoz bilan talaffuz qilinsa, u shubha, ishonchsizlik, hayratlanish kabi holatlarni ifodalaydi. Masalan: *He is a student.*

So'zlovchi nutq jarayonida mazmun e'tiboriga ko'ra muhim sanalgan so'zni ta'kidlab, baland ovoz bilan aytadi, shu so'zga tinglovchining diqqatini jalb qiladi. Bunda bevosita logik urg'udan foydalaniladi. Mazkur urg'u orqali gapdagi istalgan so'zni ta'kidlash, bo'rttirish imkoniyati mavjud. Masalan: *I saw my friend yesterday – Men kecha aynan o'zimming do'stimni ko'rdim.* Quyidagi misollarda **ijobiy baho** munosabatini unlilarni cho'zish orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz: «*That's it! Thaaat's a good boy. Fine boy. Fine, manly little fellow. Two thousand verses is a great many – very, very great many*» (M. Twain. The Adventures of Tom Sawyer. P. 86) Bu misolda ijobiy baho bir necha til vositalari, xususan, [æ] unlisini cho'zish, *good, fine* kabilarda denotat asosida, *little fellow, two thousand verses, a great many – very, very great many* larda leksemalarning sintagmatik munosabati orqali ifodalanyapti.

Ingliz va o'zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasining morfologik sathda ifodalanishi deb nomlangan faslda ingliz va o'zbek tillarida subyektiv munosabatni voqelantiruvchi affikslar tahlilga tortiladi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, tillarda morfemalarning so'z yasovchi va shakl yasovchi turlari mazkur semantikani voqelantirishda faol ishtirok etishini e'tirof etish joiz: masalan, *ingliz tilida*, affiksal morfemalar: 1) -un: *untiring, unprecedented, unlimited*; 2) -in: *invincible, incurable, indivisible*; 3) -ly: *continuously, totally, endlessly*; 4) -less: *fearless, heartless, endless*; 5) super-: *supersonic, supernatural*; 6) hyper-: *hyperconcept, hypercorrect*; 7) ultra-: *ultraviolet*; 8) archi-: *archibishop, archiangel*; 9) extra-: *extraordinary, extralinguistic*; 10) ever-: *evergreen, ever-frozen*, 11) multi-: *multi-millionaire, multi-profile*; 12) over-: *overripe, overactive, overambitious, overcareful, overripe*; 13) out-: *outswim, outfight, outrage* kabi.

Bundan tashqari ingliz tilida *-ie, -y, -let, -ling, -ette* qo'shimchalari ham kichraytirish-erkalash ma'nosini bildirgan otlarni yasab, ijobiy baho munosabati hosil qiladi: *doggie, kitty, dolly, daddy, whoopsy, whoopsies, oopsy, owie, wowie,*

dearie, righty, oopsies, ouchies, oldie, blackie, booklet, gooseling, kitchenette. Ingliz tilida *mis-* salbiy bahoni namoyon qiluvchi soʻzlar yasaydi: *misbehavior, misfortune, mismanagement*, yana bir old qoʻshimcha *multi-* neytral boʻyoqdorlikni koʻrsatuvchi soʻzlar (*multigym, multiple sclerosis*) yasashga xizmat qilsa, *multilation* soʻzida lotin tilidan ingliz tiliga oʻzlashgan *lotion* soʻziga qoʻshilib, salbiy maʼno boʻyoqdorligi hosil qiladi: *His book contains very many gruesome accounts of murder and mutilation, and page after page describing torture in almost salacious detail.* Ingliz tilida *un-, in-, dis-, mis-, ir-, im-* kabi qoʻshimchalar salbiy baho munosabatini bildiradi: *unbearable, unholy, disgust* kabi.


Ingliz tilida *-ful, -ly, -ie, -y* qoʻshimchalari ijobiy boʻyoqdorlikni ifodalashga xizmat qiladi: *joyful, lovely, lively.* Oʻzbek tilida quyidagi qoʻshimchalar kontekst tarkibida subyektiv baho boʻyoqdorligiga ega: *-xon, -bek, -oy -toy, -cha, -chak, -chok, -chiq, -gina, -jon, bibi.*

Subyektiv baho, subyektiv munosabat oʻxshatilgan predmetga *-chak, -choq, -chiq* affikslerini qoʻshib kichraytirish orqali yuzaga keladi. Masalan, *qoʻgʻirchoqdek qiz va qiz; qoʻzichoqday bola va bola; kelinchak bahor va bahor* kabi. Birinchi qatordagi aniqlovchili otlar bilan ikkinchi qatordagi otlarni (qiz, bola, bahor bir xildagi qolipga solish mumkin emas. Yuqoridagi morfemalardan tashqari, ularning *-cha, -loq (a-loq), -lar, -cha, day/dek, -la-, kila-* kabi morfemalar subyektiv munosabat ifodalashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning keyingi fasli “*Chogʻichtirilayotgan tillarda subyektiv munosabat semantikasini ifodalovchi leksik vositalar*” deb atalgan va bunda asosan subyektiv munosabat ifodalovchi leksik birliklar tahlil etilgan. Bizning eng soʻnggi besh jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” boʻyicha aniqlagan materiallarimiz shuni koʻrsatdiki, unda ot soʻz turkumiga oid subyektiv munosabat semantikasi soʻzlar: jami 650 ta, sifat soʻz turkumiga oid soʻzlar jami 600 ta, feʼl soʻz turkumiga oid jami 300 tadir. Biz quyida izohli lugʻatda hamda leksikologiya darsliklaridagi maʼnolarga ularning semantik (mavzu) guruhlari asosida hamda ijobiy, salbiy, neytral baho ifodalovchi leksemalar sifatida umumiy tavsif berishga harakat qildik. Subyektiv munosabat ifodalovchi ijobiy va salbiy boʻyoqdor soʻzlar guruhini semantik jihatdan tahlil qiladigan boʻlsak, ular orasida neytral bahoga nisbatan oʻzaro darajalanish mavjudligi koʻzga tashlanadi.

“Kishi boshining old qismi” maʼnosi boʻyicha: *yuz –bet – aft – bashara – chehra – jamol –diydor – oraz – uzor –ruxsor.* *Aft* soʻzi *bet* soʻziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. *Bashara* soʻzida salbiy ottyonka *aft* soʻziga nisbatan kuchli. *Chehra* ijobiy ottenkaga ega. *Jamol* soʻzida esa ijobiy ottenka chehradagiga nisbatan kuchli¹⁸. Ushbu soʻzlarning darajalanish shkalasi quyidagi koʻrinishga ega:

Jamol ← chehra ← yuz → bet → aft → bashara → turq kabi¹⁹. Ayni holat oʻzbek tilida quyidagi koʻrinishga ega:



¹⁸Хожиев А.П. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 234.

¹⁹ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. — Тошкент. 1995. — Б. 71.

Salbiy munosabatlar ham soʻz va soʻz birikmasi bilan ifodalanadi. Qiyoslanayotgan tillarda salbiy munosabatni ifodalovchi undalmalarda, asosan, salbiy maʼno va salbiy emotsiya ifodalovchi ot, otlashgan sifatlar, sifatdoshlar (ingliz tilida: *fool, buddy, idiot, moron, silly, mad, bullshit, stupid, bloody, crybaby, beast, ungrateful, dirty, filthy* va boshqa; oʻzbek tilida: *iblis, jinni, nomard, qotil, benomus, satang, shilqim, uyatsiz, ayyor, beadab, befarosat, ablah, nodon, badbaxt, tentak, yaramas, ahmoq, juvonmarg, koʻrnamak, imonsiz, betamiz, benomus, mishiqi, maraz, iflos, eshshak, yirtqich, qirchangʻi, boyvachcha, pes, haromi, shukursiz, dinsiz, sharmanda, dushman, gʻalamis* va metaforizatsiyaga uchrovchi hayvonlar nomlari (ingliz tilida: *ass, swine, pig, dog, fox, ape, baboon, cat* kabi.; oʻzbek tilida: *eshshak, choʻchqa, it, tulki, maymun, mushuk, sichqon* kabi, diniy atamalar (*devil, witch, monster, jodugar, shayton, ajina*) ishlatiladi: What did you say to me, **fool?**

Odatda ingliz tilida oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq salbiy munosabat ifodalovchi soʻzlar oldidan **you** olmoshi ishlatiladi: (*you bastard, you swine, you idiot, you silly, you fool, you brute, you devil, you oaf, you ass, rubbish*) va boshqa. Masalan: Oh, get out, **you idiot!** Har ikki tilda ham salbiy munosabat ifodalovchi undalmalarning soʻz birikmasi bilan ifodalanishi keng tarqalgan. Bunday birikmalar asosini har ikkala tilda yadrosi ot boʻlgan soʻz birikmalari hosil qiladi. Otdan oldin yoki keyin salbiy munosabat yoki emotsiya ifodalovchi sifatlar, sifatdoshlar (oʻzbek tilida ravishdoshlar), (*evil, barbarous, foolish, brute, mad, rotten; baloga uchragur, qurib ketgur, yer yutkur, boʻying lahatda chirigur, oting oʻchkur, aroqxoʻr, tekinxoʻr, oqpadar, lattachaynar, padar laʼnat/padaringa laʼnat, esipast* kabi: Get up, **you foolish man**, get up. Hoy, itdan tarqagan shaytonlar, meni qoʻyib yuboringlar, -deya qichqirdi Javhar (Исмоилий М. Фарғона тонг отгунча. 78 бет).

Bobning keyingi fasli “*Subyektiv munosabat semantikasining sintaktik vositalari chogʻishtirma tadqiqi*” deb nomlanadi. Maʼlumki, sintaktik sathda subyektiv munosabat ifodalashda sintaktik-semantik usul alohida oʻrin tutadi va muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday gapning mazmuniy mundarijasi diktal va modal maʼnolarning munosabatidan iborat boʻladi.

Gap baho ifodalash uchun vosita boʻlar ekan, unda asosan baho obyekt va subyekt munosabati tarzida yuzaga chiqadi. Shunga asosan, sintaktik usul bilan baho ifodalanishida: takror, undalma, kirish soʻz, modallik, inversiya, mantiqiy urgʻu kabilar orqali baho ifodalanishini kuzatishimiz mumkin. Masalan: *Sohangiz nima, uka? – doʻxtir gʻalati qaradi*. Ushbu misolda doktorning subyektga munosabati *uka* murojaat shakli (undalma) orqali namoyon boʻlmoqda. Bu oʻrinda *uka* murojaat shakli orqali adresant adresatga aql oʻrgatish, undan koʻra koʻp narsani bilishi (chunki u katta) kabi pragmatik maʼno anglashiladiki, natijada undalma orqali salbiy baho munosabati ifodalanmoqda.

Ingliz tilida ham baho munosabati gapda undalmalar, soʻz takrorlari, inversiya, urgʻu, sarkazmlar va shuningdek leksik baho munosabatini anglatuvchi soʻzlar orqali, if shart ergashgan gaplar qiyoslash taqqoslash yoki zidlash orqali yuzaga chiqadi. Oʻzbek tilida takrorning shunday turlari borki, ular ifodalanmish

yoki soʻz maʼnosi ifodalagan belgining yanada kuchaytirilishi uchun xizmat qiladi. Bular sifat va ravishlar asosida vujudga kelgan takrorlardir. Ulardan biri chiqish kelishigi asosida shakllangan takroridir: *donolarning donosi, yomonlarning yomoni, yaxshilarning yaxshisi* kabi. Инглиз тилида: *horror of horrors, wonder of wonders: One day it was discovered, horror of horrors, that a gang of gypsies had been living there.* Bunda butundan qism (yakka) boshqalarga qaraganda oʻz xususiyati, belgisining ortiqqligi asosida ajratiladi.

Ingliz tilida quyidagi soʻz birikmalari subyektiv munosabat ifodalashga xizmat qiladi: *a) for ever, for good, for centuries /for years/, on /the/ earth /not on earth/, in the world /not in the world/, for the world /not for the world/, thousands of pardons, to say a hundred times va h.k..*

“Subyektiv munosabat semantikasining lingvokulturologik xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bobda lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida, ingliz va oʻzbek tillarida subyektiv munosabatning frazeologik birliklar orqali voqelanishi hamda oʻxshatish va metaforalar orqali subyektiv munosabatni ifodalanishi kabi masalalar tahlilga tortiladi.

Maʼlumki, XIX asrning 70-yillaridan boshlab tillarning yashash sharoiti qandayligi masalasi tadqiqotchilar eʼtiborini koʻproq oʻziga torta boshladi va buning natijasida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bagʻridan yangi yoʻnalish oʻsib chiqdi. Ushbu tilshunoslik asosiy eʼtiborni tarixiy yozma yodgorliklar tilini oʻrganishga va bobotil holatini tiklashga qaratdi. Ular bevosita nutqiy jarayonni oʻrganishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan boʻlsa ham, lekin tilni muayyan elementlarning oʻzaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini, uning koʻp pogʻonali ichki tuzilishini, belgili tabiatini yoritib berishga ojizlik qildi va uning bagʻridan yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga asosiy eʼtiborni qaratgan sistem-struktur tilshunoslik maydonga keldi²⁰. Tilni munosabatlar sistemasi sifatida oʻrganish natijasida sistem-struktur tilshunoslik umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa kabi dialektik kategoriyalar asosida til va nutqni farqladi. Struktur tilshunoslik tilning ichki tuzilishini modellashtirgan holda oʻrganishga harakat qildi. Lekin nutqiy faoliyatda soʻzlovchining rolini, lisoniy birliklarning mazmuniy tomonini oʻrganish eʼtibordan chetda qoldi. Bu esa tilshunoslik oldiga yana yangi vazifalar qoʻydi.

XXI asr boʻsagʻasida anʼanaviy va struktur tilshunoslik bagʻridan antropotsentrik lingvistika oʻsib chiqdi. Mazkur tilshunoslikda inson markaziy oʻringa chiqdi. Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yoʻnalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari oraliqʻida yuzaga kelgan boʻlib, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan oʻzaro aloqasi va taʼsirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganadi. Lingvokulturologik xususiyatlar har bir tilga xos boʻlib, ular muayyan jamiyatning turmush tarzi, taraqqiyoti va rivojlanishidagi yoʻlini aks ettiradi. Tillarning lingvokulturologik xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha koʻpgina olimlar A.Vejbitskaya, V.Vorobev, S.Vorkachev, N.Djusupov,

²⁰ Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги bosqichi// Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 6. – Б. 50-54.

V.Karasik, V.Krasnix, V.Maslova, I.Olshanskiy, E.Oparina, D.Ashurova, S.Akbarova kabilar tadqiqot olib borishgan. Bu tadqiqotlarda turli xalqlarning tillariga oid bo‘lgan konseptlar qiyosiy o‘rganilgan.

Ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasini ifodalovchi frazeologik birliklar tahlili nomi ostidagi faslda asosiy e‘tibor ingliz va o‘zbek tillaridagi ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi frazeologik birliklar xususida fikr yuritadi. Ma‘lumki, tilning frazeologik fondi ma‘lum bir xalqning urf-odati, turmush tarzi, madaniyati va mentalitetini aks ettiruvchi muhim ma‘lumotlar manbai hisoblanadi. Chunki frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, urf-odatlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Frazeologik birliklar obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalardan bo‘lib, ular badiiy matnlarning ifodaviy ta‘sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham frazeologik birlik (FB)lar ixcham, ma‘no jihatidan salmoqdor va ta‘sirchan birliklar hisoblanadi. Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma‘naviyati, urf-odati, kasbi, turmush tarzi, o‘tmishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir.

Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi turg‘un o‘xshatishlar mavjud bo‘ladi. Masalan, “o‘zbek tilidagi musichaday beozor (odam) o‘xshatishini boshqa tillarda uchratish qiyin. Musichaday o‘xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda “beozorlik” belgisining o‘zbekcha xos ta‘kidi yaqqol o‘z ifodasini topgan. Musichaga xos yumshoq tabiat va harakat o‘zbek idrokida ijobiy talqin topishidan tashqari, bu mushfiq qush haqidagi islomiy rivoyat ham musichaday etalonining an‘anaga kirishiga ta‘sir etgani ehtimoldan holi emas. Ana shu tariqa musichaday beozor turg‘un o‘xshatishi beozorlikning o‘zbekcha o‘lchovi sifatida tamoman milliy obraz maqomini olgan”. Lekin hamma lingvomadaniyatlarda ham shunday emas. Masalan, ingliz tilida “beozorlik” timsoli sifatida “kabutar” qabul qilinganini kuzatish mumkin: *As harmless as a dove* (Musichaday beozor) birikmasini uchratish mumkin. O‘xshatishlar orqali yuzaga keladigan frazeologik birliklar har bir xalqning iqlimi, fauna va florasida, joylashgan hududining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham yaratiladi. Mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari vositasida ham muayyan o‘xshatishlarning vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Jumladan, o‘zbek tilida “baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir” ma‘nosida Alpomishday; ingliz tilida “as brave as Robim Hood” iborasi qo‘llaniladi.

Faktik til materialining tahlili komparativ frazeologik birliklar subyektiv munosabat ifodalovchi faol vositalar ekanligini ko‘rsatdi. Komparativ frazeologik birliklar turli maqsad ifodalarini berishda faol qo‘llaniladi. Masalan, o‘ta ko‘p ovqat iste‘mol qiladigan kishilarga nisbatan quyidagi komparativ frazeologik birliklari orqali salbiy baho ifodalanadi: *as greedy as a wolf, as greedy as a pig, as greedy as a dog*. O‘zbek tilida esa mazkur holatni “moldek ovqat emoq” iborasi orqali berish mumkin. Kishi gavdasining o‘ta semizligini ifodalashda esa: *as fat as butter, as fat as a pig*, o‘zbek tilida ham *cho‘chqadek semiz* iborasi qo‘llaniladi.

Inson, birinchi navbatda, boshqa insonning tashqi ko‘rinishini ko‘rish sezgisi orqali qabul qiladi. Demak, “subyektiv munosabat” haqidagi eng birinchi estetik baho ko‘rish orqali beriladi va ijobiy hamda salbiy munosabat bildiriladi. Ijobiy baho ifodasini quyidagi iboralarda ko‘rishimiz mumkin: *sweets to the sweet; out of this world; graceful as a swan; prince charming; as pretty as a picture; may queen; a dolly bird; a slick chick; fair as lily; a feast to the eye; a glamour girl; as sweet as honey; as handsome as young Greek god* kabi.

Yuqorida keltirilgan frazeologik iboralardan ham bilish mumkinki, inson, birinchi navbatda, boshqa insonning tashqi ko‘rinishini ko‘rish sezgisi orqali qabul qiladi. Demak, “subyektiv munosabat” haqidagi eng birinchi estetik baho ko‘rish orqali beriladi va ijobiy hamda salbiy munosabat bildiriladi. Ko‘rish sezgisi orqali ko‘rib, go‘zallikka maftun bo‘lish haqidagi frazeologik iboralar, ayniqsa, ingliz lingvomadaniyatida ko‘p uchraydi.

Bobning uchinchi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat semantikasining o‘xshatish va metaforalar orqali voqelanishi*” deb nomlangan bo‘lib, mazkur faslda o‘xshatish va metaforaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

O‘xshatish, metafora kabi hodisalar tilshunoslikda komparativ troplar deb ham yuritiladi²¹. Bunda, albatta, o‘xshatishning asosida ham, metaforaning asosida ham qiyoslash-o‘xshatish usuli yotgani e‘tirof etiladi. Aslida metafora ham o‘xshatish, faqat u yashirin yoki qisqargan o‘xshatishdir²².

Lingvomadaniyatlarning aksariyatida ayni o‘xshatish etalonlari turli belgilarning o‘lchovi sifatida qo‘llanilishi mumkin: o‘zbek tilida “qo‘ydek yuvosh” ijobiy baho ifodalasa, ayni holat rus va ingliz xalqlari madaniyatida salbiy baho bo‘yoqdorligiga ega. Masalan, “tuya” arab xalqlari madaniyatida ijobiy baho ifodalaydi, ya‘ni ayollarning chiroyli va yoqimlilikini ifodalovchi ramzlardan hisoblanadi. Chunki Arabiston azaldan atrofi qumlik bilan o‘ralgan Sahroi Kabirda joylashgan bo‘lib, qadimda transport bo‘lmagan. O‘sha davrlarda eng muhim transport vositasi tuya bo‘lgan. Shu sababli ham, mazkur xalq madaniyatida “tuya” ijobiy baho ifodalovchi vosita sanalsa, boshqa xalqlarda, xususan ingliz va o‘zbek tillarida ham ushbu zoosemizm salbiy bo‘yoqqa ega, ya‘ni “beso‘naqay”likni ifodalaydi.

Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug‘vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo‘ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go‘zallik timsoli sifatida gavdalanadi, shuning uchun mazkur holatlar ijobiy baho ifodalashga xizmat qiladi.

Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o‘zgacha ifoda vositalari, ya‘ni boshqacha o‘xshatish etalonlari vositasida aks ettirilishi mumkin. Masalan, baquvvat kishilarni o‘zbeklar va inglizlar *otga* muqoyasa qilishsa, ruslar *buqa* zoosemizmidan foydalanadi: “otday baquvvat”, “as strong as a horse”, “здоровый как бык” orqali ijobiy baho ifodalanadi. Yoki o‘zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), rus va inglizlar esa ariga

²¹ Аристотель. Риторика / Античные риторика. - М., МГУ, 1978, 134-6.

²² И. Арнольд. Стилистика современного английского языка. - Л., «Просвещение», 1973, 146-6.

o'xshatadilar: "chumolidek mehnatkash", "as busy as a bee" kabi. Subyektiv munosabat semantikasining milliy-madaniy xususiyatlari metaforizatsiya jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqning turmush tarzi, xo'jalik muhiti, ayrim an'ana va urf-odatlar, tabiiyki, tilning leksik sistemasida o'z in'ikosini topadi. Materiallar shuni ko'rsatadiki, har bir xalq o'z zoosemizmlari tizimiga ega va ularda o'ziga xos yo'sinda qo'llanish imkoniyatlari mavjud. Bu esa dunyoni qay tarzda ko'rish nuqtayi nazari bilan bog'liq bo'ladi. Hayvonlar, qushlarning tovush chiqarish harakatini anglatuvchi so'zlar metaforik ma'noda qo'llanganda ham ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi: *sayramoq, kukulamoq, akillamoq, pirillamoq, g'ingshimoq, ulimoq, vaqillamoq, vaqirlamoq, vovag'lamoq, bo'kirmoq, o'kirmoq, chiyillamoq* kabi.

O'zbek tilida inson tashqi qiyofasiga baho berishda "dev", "alvasti", "ajina", "yalmog'iz" kabi leksemalar faol ishtirok etadi. Dev leksemasi ko'pincha erkak kishi tashqi ko'rinishining yoqimsizligi, beso'naqayligini kuchaytirib ifodalaydi: *Qizingizni erga bermay, devga berdingiz* (Исмоилий М. Фарғона тонг отгунча. 97-бет).

Ingliz xalqining barcha milliy-madaniy xususiyatlari so'zning semantik strukturasi o'z ifodasini topadi. Insonning ijobiy yoki salbiy baho ifodalashini voqelantirish ekstralingvistik omillarga bevosita bog'liqdir.

UMUMIY XULOSALAR

1. Obyektivlik va subyektivlik muammolari gnoseologik masalalar guruhiga taalluqli bo'lib, ular avvalo falsafa fanlari doirasida o'z yechimini topadi. Mazkur muammo nafaqat falsafa va mantiq, balki psixologiya hamda tilshunoslik fanlarining ham tadqiqot obyektiga kiradi. Falsafaning umumiylik-xususiyluk kategoriyasi, til va nutq masalalarini jiddiy o'rganila boshlanishi bunday tadqiqotlar mazmun mohiyatini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Subyektiv munosabat semantikasi modallik, baholash kabi kategoriyalar doirasida yuzaga chiqqanligi bois, tilshunoslikda mazkur muammoni ushbu kategoriyalar qurshovida o'rganishga qiziqish ortdi va natijada tilshunoslikda bir qancha ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Ushbu izlanishlarda modallik, subyektiv modallik va uning turlari, aksiologik baho va aksiologik modallik, lingvistik baho, subyektiv baho va uning til sathlarida voqelanishi kabi masalalar tadqiqotlar obyektiga aylandi.

3. Baho va munosabat tushunchalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, tilshunoslikda "baho munosabati", "subyektiv munosabat", "ijobiy munosabat", "salbiy munosabat" terminlari tilshunoslar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Demak, "baho munosabati" termini orqali voqelikka nisbatan subyektiv munosabat bildirish mazmuni tushuniladi va baho munosabati nutqda til sath birliklari orqali yuzaga chiqadi. Baho munosabati ifodalanishida til sath vositalarining ijobiy va salbiy ma'no anglatishi asosiy o'ringa chiqadi.

4. Subyektiv munosabat semantikasi bir tomondan, obyektivlik, subyektivlik, umumiylik, xususiyluk, sifat, miqdor, me'yor kabi falsafiy kategoriyalar bilan, boshqa tomondan, esa subyektiv-pragmatik kategoriyalar bo'lmish: modallik,

emotsionallik, baholash, intensivlik, ekspressivlik kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, u tilda ijobiy, salbiy yoki neytral baho tarzida voqelanadi.

5. Aksiologik baho semantik jihatdan lingvistik kategoriya va ekspressivlikning o‘ziga xos shaklidir. Tilda obyektiv baho – fikrni ifodalash imkoniyati sifatida, nutq tarkibida esa subyektiv baho – subyektning obyektga bildirgan qo‘shimcha munosabati tarzida qo‘llaniladi. Obyektivlik va subyektivlik bir-birini to‘ldiruvchi, taqozo etuvchi tushunchalar bo‘lib, ijtimoiy qonuniyatlarni aks ettiruvchi bazis va ustqurmaning lisoniy ifodasidir. Har qanday baho munosabati nutqda subyektivlik kasb etadi va subyektivlikdan xoli bo‘lgan nutq mavjud bo‘lishi mumkin emas.

6. Ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv munosabat ifodalashda intonatsiya va uning komponentlari muhim ahamiyatga ega. Baho munosabati asosan unli, undosh tovushlarni cho‘zish hamda qavatlash orqali yuzaga chiqadi. Muloqot jarayonida unli orqali baho munosabatini ifodalash undoshlarga qaraganda ko‘proq kuzatiladi. Shuningdek, har ikki til vakillari tomonidan salbiy baholash jarayonida tovushlarga, xususan, unli tovushlarga ko‘proq murojaat etiladi va voqelikka nisbatan subyektiv munosabat bildiriladi.

7. Morfologik sathda subyektiv munosabat ifodalashda har ikki tilda affikslar faol sanaladi. Tilimizdagi -cha, -choq, -chak, -loq qo‘shimchalari ekspressivlik ifodalovchi vosita bo‘lib, suyish, erkalash, yoqtirish, shuningdek, mensimaslik, tahqirlash, kesatish kabi subyektiv munosabat ma’nolarini ifodalaydi. Ingliz tilida -ie, -y, -let, -ling, -ette qo‘shimchalari kichraytirish-erkalash ma’nosi bildirgan otlari yasab, ijobiy baho munosabati hosil qiladi.

8. Ingliz va o‘zbek tillarining izohli lug‘atlaridan subyektiv munosabat ifodalovchi leksemalarni ajratib olib, ularni mavzu guruhlar bo‘yicha tahlil qilishganimizda ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi leksemalar ko‘proq ot, sifat va fe‘l so‘z turkumlariga xosligiga guvoh bo‘ldik.

9. Antropotsentrik paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o‘rganuvchi, boshqa sistemalar inson, jamiyat, madaniyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo‘naltirilgan g‘oyalar yig‘indisidir. Lingvokulturologiya haqida so‘z yuritganda shuni alohida e‘tiborga olish lozimki, u o‘rganadigan til birliklari til va madaniyat elementlarining sintezi hisoblanadi.

10. Frazeologik birliklar obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalardan bo‘lib, ular badiiy matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham frazeologik birlik (FB)lar ixcham, ma’no jihatidan salmoqdor va ta’sirchan birliklar hisoblanadi. Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviyati, urf-odati, kasbi, turmush tarzi, o‘tmishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir.

11. Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Tilida metaforik qo‘llanish natijasida emotsional-ekspressiv ma’no

hosil qiluvchi ko'p so'zlar mavjud. Bular orasida zoonimlar (kishilarning obrazli xarakteristikasini berish maqsadida hayvonlar, parrandalar, hasharotlar nomlarini metaforik ma'noda qo'llash) alohida o'rin tutadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/31.03.2021/Fil.76.05 ON AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES UNDER NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

IKHTIYOROV AZAMJON AVAZJON UGLI

**SEMANTICS OF SUBJECTIVE ATTITUDE IN NON-RELATED
LANGUAGES AND ITS LINGUOCULTURAL FEATURES**
(on the examples of English and Uzbek languages)

**10.00.06 – Comparative literary studies, Contrastive linguistics
and Translation studies**

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PHD) IN
PHILOLOGICAL SCIENCES**

Namangan – 2024

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophical Science (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under the number B.2022.1.PhD/Fil 1631.

The dissertation was completed at Kokand State Pedagogical Institute..

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) has been uploaded to the web page of the Scientific Council www.kspi.uz and the informational and educational portal "ZiyoNET" www.ziynet.uz.

Scientific supervisor:

Bazarov Oybek Odilovich,
candidate of philological sciences,
associate professor

Official opponents:

Vositov Volijon Abduvahobovich
Doctor of Philological Sciences (DSc),
professor

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
Doctor of Philological Sciences (DSc),
professor

Leading organization:

Uzbekistan State World Languages university

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 at Namangan State University on ____, 2024 at ____ (Address: 316, Uychi street, Namangan city, 160107. Tel.: (99869) 228-85-01; fax: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation is available in the Information Resource center of Namangan State University (registered under № ____). Address: 316, Uychi street, Namangan city, 160107. Tel: (99869) 228-85-01.

The abstract of the dissertation was distributed on _____, 2024.
(Registry report № ____ in 2024 " ____ " _____)

A.I.Ziyayev

Chairman of the Scientific Council on
Awarding Scientific Degrees, Doctor of
Philological Sciences, professor

N.A.Mamadjonova

Scientific Secretary of the Scientific
Council on Awarding Scientific Degrees,
doctor of philosophy (PhD) in pedagogical
sciences

Q.A.Siddiqov

Chairman of the Scientific Seminar at the
Scientific Council on Awarding Scientific
Degrees, Candidate of Philological sciences
associate professor.

INTRODUCTION (annotation of the doctoral (PhD) dissertation)

Actuality and significance of the dissertation topic. In world linguistics, a certain amount of attention is paid to issues such as the ontological nature of the semantics of subjective relations, in particular, the existence of these semantics at different linguistic levels and their status in paradigmatic, syntagmatic, hierarchical relations. In particular, today the analysis of the semantics of subjective attitude in the material of different systematic languages, the research of its specific features, the research of linguistic units that represent values in the language are of urgent importance. This, of course, determines the need to study the semantics of subjective relations in different systematic languages. Therefore, the cross-research of the concept of subjective attitude and related linguistic-cultural, linguistic-cognitive features is one of the urgent issues in linguistics.

In world linguistics, the research of language based on anthropocentric, axiological, cognitive and linguistic approaches is gaining priority. In the study of the semantics of subjective attitude, moving from particularity to generality, determining universality and uniqueness on the basis of this, determining the uniqueness of each language according to the semantics of subjective attitude, and defining the linguistic and cultural characteristics are considered important tasks.

In Uzbek linguistics, it is important to study the phenomenon of semantics of subjective relation and its linguistic features on the basis of the materials of non-related languages, to know the laws of this semantic phenomenon in detail and in depth. Issues such as the realization of subjective relational semantics at different levels of language, the relationship of this semantics to related phenomena such as modality, evaluation, emotionality, expression of subjective relational semantics through phraseological unity, similes and metaphors are gaining relevance.

The research carried out within the framework of this dissertation is based on the Decree²³ of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", PQ of February 17, 2017 - No. 2789 "Activities of the Academy of Sciences,

In the decision "On measures to further improve the organization, management and financing of scientific and research activities", dated June 5, 2018 PQ-3775 "Increasing the quality of education in higher education institutions and their implementation in the country serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the decision "On additional measures to ensure active participation in comprehensive reforms" and other regulatory legal documents related to this activity.

In the following years, attention to the issue of cooperation in education and science has increased. In particular, the head of our state Sh.M. Mirziyoyev's

²³ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 18 февраль № 28 (6722).

decree PQ-2909 "On measures for the further development of the higher education system (April 20, 2017)", the Office of the President of the Republic of Uzbekistan "Development of science, education, health care and sports and on further improvement" (03.02.2017), PQ-2811. decree PQ-3365 "On measures to further strengthen the infrastructure of scientific research institutions and develop innovative activities" (01.11.2017) is a clear example of this.

Relevance of the research on the priority directions of the development of science and technology of the republic. This research is in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state" is done.

The connection of the research with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The selected research topic was carried out on the basis of the research project "Linguo-cultural and linguo-ethnic issues of linguistic units of world languages" in accordance with the scientific research plan of English Language and Literature department of the Kokand State Pedagogical Institute.

Degree of study of the issue. Some issues related to subjective attitude and its semantics are discussed by world and Russian linguists, including: G. Lakoff, V. Von Humboldt, A. A. Potebnya, J. L. Lemke, Russian linguists S. F. Anisimov, V. V. Vinogradov, V. I. Dodonov, Ye. M. Wolff, N.D. Arutyunova, Ye.S. Yakovleva, M.S. Kagan, V.A. Maslova, O.N. Kushnir, A.A. Artemov, L.V. Kolijuk, O.V. Moshtak, L.N. Fedoseeva, A.M. Peshkovsky, Ye.A. Andreeva and other scientists studied to a certain extent²⁴. Here, it is worth noting that the study of speech evaluation process

²⁴ Lakoff G. *Woman, Fire and Dangerous Things: What categories Reveal about the mind.* – Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1987. – 614 p.; Гумбольдт В.Ф. *Язык и философия культуры.* – Москва: Прогресс, 1985. – 452 с.; Потебня А.А. *Из записок по русской грамматике.* Москва: госпедиздаг, 1958. – 343 с.; Lemke J.L. // *Semantics and social values, Word.* – New York: Bruoklin College School of Education, 1989. – P. 234-238.; Ивин А.А. *Основания логики оценок.* – Москва: Изд-во МГУ, 1970. – 230 с.; Anisimov S.F. *The real and imaginary values* – Moscow: Thought, 1970 – 183 p.; Виноградов В.В. *Русский язык: Грамматическое учение о слове.* – Москва: Просвещение, 1972. – 614 с.; Додонов В.И. *Эмоция как ценность.* – Москва: Политиздат, 1978. – 272 с.; Вольф Е.М. *Функциональная семантика оценки.* – Москва: Наука, 1985. – 226 с.; Арутюнова Н.Д. *Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт.* – Моск-ва: Наука, 1988. – 340 с.; Яковлева Е.С. *Фрагменты русской языковой картины мира (модели пространства, времени и восприятия)* – Москва: Гнозис, 1994. – 344 с.; Каган М.С. *Философская теория ценности.* – Петрополис: СПб, 1999. – 205 с.; Маслова В.А. *Когнитивная лингвистика.* – Минск: Тарта Системс, 2004. – 266 с.; Kushnir O. N. *Axiological base of the typology of linguistic cultural concepts. Category of values and culture (axiology, literature, language) // Proceedings of scientific conference.* – Vladikavkaz: Publishing House of the North Ossetian State University, 2010. – P. 165-174.; Artemov A. A. *Philosophical experience in building value hierarchy // Problems of modern economy.* – Moscow. 2006. – P. 51-53.; Колижук Л. В. *Концепты «GOOD» и «EVIL» в британской лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.* – Владикавказ, 2010. – 22 с.; *Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография.* – Москва: Тезаурус, 2011. – 352 с.; Моштак О.В. *Linguistic aspect of evaluative category of rejoyativeness // Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету.* – Сер: Філологія. 2015. – С. 37-39.; Федосеева Л. Н. // *Ценности и оценки в*

is inextricably linked with new fields of linguistics, such as phonostylistics, phonosemantics, and phonopragmatics. A.K. Kurat, M.Magnus, A.R.Juravlev, I.Ye in world and Russian linguistics. Galoshkina, N.V. Cheremisina, S.V. Voronin, D.L. Lenza., Ye. Soloveva²⁵; In Uzbek linguistics, the above directions are rapidly developing with the services of scientists such as Z. Kabilova, O. Tursunova, F. Khalimova, M. Goziyeva, A. Haydarov, M. Norova²⁶. Expressiveness, pragmatic features of grammatical tools are of particular importance in clarifying the positive or negative evaluation relationship in communication, and in this field K.T.Simmer, L.Bauer, M.Ya.Blox, J.Boronov, R.Kongurov, Sh. Safarov, Sh. Iskandarova, M. Mamadaliyeva, Z. Tohirov, A. Abdullayev, B. Umurkulov, E. Qilichev, S. Boymirzaeva, etc. conducted research²⁷. J. Yaqubov, questions of relation of semantics of subjective attitude to modality and axiological assessment. It has been studied to a certain extent by such researchers as G Kambarov, M. Jo'rayeva, G. Komilova, E. Ibragimova, Z. Isaqova, D. Boymatova²⁸. However, in

системе аксиологии русской лингвокультуры (на примере про-странственного фрагмента картины мира) // Культура и цивилизация. – Рязань: Аналитика родис., 2017. – С. 134-141.; Пешковский А. М. Лингвистика. Поэтика. Стилистика – Москва: Флинта, 2018. – 712 с; Andreyeva E., Nazmieva E., Nasrtdinova V. Taxonomy of Values and Anti-Values: the Material of the Russian and German Phraseology // Journal of History Culture and Art Research 6 (5) – Karabuk University, 2017. – P. 301-309.

